

**QORAQALPOQ ADABIYOTINING SHARQ XALQLARI
ADABIYOTI BILAN ALOQALARI****Dawletalieva Zaxima****Ibroyim Yusupov nomida ijod maktabi****Qoraqalpoq tili adabiyoti o'qituvchisi****Annotatsiya**

Mazkur maqolada Qoraqalpoq adabiyotining Sharq xalqlari, xususan turkiy, fors-tojik va arab adabiy an'analari bilan tarixiy-madaniy aloqalari, o'zaro ta'sir yo'nalishlari hamda bu jarayonlarning qoraqalpoq milliy adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Folklor, mumtoz adabiyot va zamonaviy adabiy jarayonlar misolida adabiy integratsiyaning asosiy komponentlari yoritiladi.

Qoraqalpoq adabiyoti Markaziy Osiyo madaniy makonining ajralmas qismi bo'lib, uning shakllanishida Sharq xalqlari adabiy merosi muhim o'rin tutadi. Qoraqalpoqlar turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lganligi bois, ularning og'zaki va yozma ijodi asrlar davomida o'zbek, turkman, qozoq, nog'oy, hamda boshqa turkiy elatlar adabiy an'analari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Shu bilan birga, islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan arab va fors-tojik adabiy merosining estetik, g'oyaviy va janriy unsurlari qoraqalpoq adabiyotining o'ziga xosligini boyitdi. Ushbu maqolada mazkur adabiy-madaniy aloqalar tarixiy davriylik, janriy-uslubiy xususiyatlar va o'zaro adabiy ta'sir aspektlarida o'rganilmoqda

Qoraqalpoq xalqi etnogenezi turkiy qavmlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat og'zaki ijodda aniq namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq folklorida uchraydigan ko'plab syujetlar umumturkiy epos – "Alpomish", "Qoblan", "Qir qiz" singari dostonlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Bu dostonlarning qoraqalpoq variantlari aqinlik an'anasiga yaqin bo'lib, o'zbek va turk Eski qoraqalpoq adabiyoti va tili qadimgi davrdan boshlanadigan umumiy turkiy adabiyot bilan bir qil. Qoraqalpoq folklorida uchraydigan motivlar ham turkiy xalqlar motivlari bilan hamohangdir. Folklor orqali



namoyon bo'ladigan o'zaro ta'sir quyidagi ko'rinishlarda ko'zga tashlanadi: qahramonlik eposining umumiy uqshahsligi, sevgi dostonlaridagi turkiy epik tizimga xos motivlar, maqollar, matal va qo'shiqlardagi semantik yaqinliklar, muqaddas obrazlarning (ota-bobo ruhi, donishmand qariya, bahodir yigit) umumiy arxetiplari. Bu jarayon qoraqalpoq adabiy tafakkurining dastlabki qatlamini Sharq xalqlari bilan birlashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Islomiy uyg'onish davri adabiyoti sharqlar xususan O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ham kuchli ta'sir qildi. Bu esa o'z navbatida qoraqalpoq adabaitida ha'm tasir o'z ifodasini topdi. Hofiz, Sa'diy, Firdavsiy, Nizomiy singari fors-tojik adabiyoti vakillarining ishqiy-lirik va axloqiy-ta'limiy g'oyalari qoraqalpoq shoirlarining asarlarida aks etdi. Tasavvuf falsafasi qoraqalpoq she'riyatida axloqiy kamolot, sabr, tavozelik, ma'naviy poklik mavzularining rivojlanishiga zamin yaratdi. Alisher Navoiy, Fizuliy, Lutfiy, So'fi Olloyor kabi turkiy shoirlarning lirika an'analari qoraqalpoq she'riyatining uslubiy-janriy rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Mumtoz Sharq adabiyoti bilan bog'liq unsurlar ayniqsa: g'azal, masnaviy, hikmatli she'r kabi janrlarda yaqqol ko'rinadi. XVI va XVIII asrdagi qoraqalpoq adabiyoti turkiy ananalar asosida rivojlandi. Bu davrdagi adabiyot asosan ijtimoiy hayot muommalarini ifodaladi. XIX asrga kelib qoraqalpoq adabiyotida yozma adabiyot teran ildiz otti. Buni olimlar qoraqalpoqlarning o'tro'q turmush ta'rziga o'tishi bilan bog'laydilar. Bu davrda madrasalarda ta'lim olgan qoraqalpoq ziyolilari arab, fors adabiyoti bilan yaqin tanishdilar natijada adabiyotimizga yangi janrlar va motivlar kirib keldi. Bu hodisa ayniqsa Berdaq va Ajiniyoz ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. XIX asr qoraqalpoq adabiyotining eng yirik namoyandalari – Berdaq hamda Ajiniyoz ijodi Sharq adabiy maktablarining sintezini yaqqol namoyish etadi. Sharq adabiyoti singari Ajiniyoz va Berdaq asarlarida ham xalq dardi, zulmga qarshi kurash, haqiqat va adolat kabi mavzular ustuvor bo'lgan. Ayniqsa Berdaqning asarlarida, dostonlarida ijtimoiy adolatsizlik tanqid qilinadi — bu Sharq adabiyotidagi odil jamiyat haqidagi an'anaga mos keladi. Abu Nosr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asardagi kabi Berdaq ham farovonlik asosi xalq deb biladi. Berdaq Qarg'aboy ug'li



Qoraqum echon madrasasida ta'lim olgan bo'lib bu madrasa XIX asrdagi qoraqalpoqlar orasidagi tasavvuf g'oyalarining markazi bo'lgan. Shu bilan birga madrasaning u'sha davr uchun boy kutubxonasi Berdaq ijodiga kuchli ta'sir qildi. Berdaq o'z ijodida: tasavvufiy g'oyalar, xalq og'zaki ijodi, improvizatsion ruhi, Fizuliy falasafasini, Navoiy lirikasining ma'naviy-intellektual qatlamini birlashtira olgan. Uning sherlarida hayotning ma'nosi, insonning jamiyatdagi vazifasi, ruhiy komillik kabi tasavvufga yaqin g'oyalar mavjud. Bu uni Navoiy, Xorazmiy, Ogahiy kabi sharqona ruhdagi shoirlar bilan mushtarak qiladi. Ajiniyoz Qosiboy o'g'li esa: mumtoz she'riy aruz tizimidan foydalangan, o'z she'riyatida o'zbek va fors-tojik lirikasiga xos badiiy vositalarni qo'llagan, "Bo'zataw", "Demishler" kabi she'riy obrazlar orqali sharqona falsafiy tafakkurni mahalliy ruh bilan uyg'unlashtirgan. Ajeniyoz ijodida aruz vazni elementlari uchraydi, bu Sharq mumtoz she'riyati bilan bevosita bog'liqdir. Berdaq esa xalq og'zaki she'riyatining barmoq tizimidan foydalangan — bu ham Sharq adabiy merosining umumiy jihati. Uning she'r va dostonlarida Sharq xalqlari – o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq, fors-tojik adabiyoti, hatto keng turkiy adabiy makonning umumiy ruhini mujassam ko'rish mumkin. Bu uyg'unlik bir nechta yo'nalishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan u O'zbek adabiyotidagi Ogahiy, Munis kabi Xorazm maktab ta'sir kuchli seziladi. Sharq mumtoz she'riyatida ramziy badiiyat asosiy o'rin tutadi, Ajeniyoz esa ushbu an'anani xalqona ohang bilan uyg'unlashtiradi. Sharq she'riyati ohangdor, ritmik jihatdan yuksak sanaladi. Ajeniyoz she'rlarida ham:qofiya uyg'unligi, musiqiy ritm, jonli xalqona ohang Sharq lirikasining tabiiy davomidir.

XX asr adabiy jarayonlari va yangi integratsiya

XX asr boshlarida jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakati qoraqalpoq adabiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu jarayon: o'zbek, tatar, ma'rifatparvarlari faoliyati bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu davrda qoraqalpoq adabiyotiga oldin nomolim bo'lgan zamonaviy nasr, dramatik asarlar, publitsistika kabi janrlar rivojlanib, Sharqning modern adabiy tajribasi qoraqalpoq adabiy muhitiga chuqur kirib keldi. XX asrning yirik qoraqalpoq adiblari – I. Yusupov, N.



Davkarayev, T. Qayipbergenov – o‘z ijodida Sharqning zamonaviy adabiy oqimlarini, g‘oya va uslublarini milliy ruh bilan uyg‘unlashtirdilar. Bu adib va shoirlar nafaqat yangi janrlar bilan ba’lki eski turkiy va arab-fors adabiyoti ananalarini ha’ m davom ettirishdi. Ayniqsa shoir Ibroyim Yusupov ijodi sermahsul bo‘lib hamma janrlarfd qalam tebratti. XX asrdagi eng yirik shoirlaridan biri bo‘lib, uning ijodi Sharq adabiyotining boy an‘analari, falsafiy dunyoqarashi va badiiy uslubiyati bilan chuqur bog‘langan. U Sharq lirikasini zamonaviy ruhi bilan uyg‘unlashtirgan, klassik merosni milliy zaminda qayta talqin qilgan ijodkor sifatida tanilgan. Ibroyim Yusupov she‘riyatida ham insonning ichki dunyosi, ma‘naviy izlanishlari, ruhiy yuksalishi doimiy mavzulardan biridir. Bu uning ijodini Sharq tafakkuri bilan mutanosib qiladi. Yusupov asarlarida Sharq poetikasiga xos ramzlar ko‘p uchraydi: quyosh va oy — ilohiylik va umid timsoli, qush obrazi — ozodlik, ruhiyat, sahro — hayot sinovi, suv — poklik va baraka.

Xulosa

Qoraqalpoq adabiyoti o‘z tarixiy ildizlari, badiiy an‘analari va ma‘naviy merosi jihatidan Sharq adabiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan adabiy makondir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan tortib og‘zaki dostonchilik, mumtoz lirika va zamonaviy poeziya darajasigacha bu adabiyot Sharq xalqlarining umumiy ruhiyati va madaniy qadriyatlaridan oziq olgan. Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan majoziy obrazlar, tasavvufiy-falsafiy qarashlar, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik g‘oyalari qoraqalpoq ijodkorlarining asarlarida ham chuqur va o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Qoraqalpoq shoirlari — Berdaq, Ajeniyoz, Otesh, Ibroyim Yusupov kabi ijodkorlar Sharqning buyuk an‘analarini davom ettirib, ularni turkiy xalqning ruhiy olami bilan uyg‘unlashtirgan holda yangi badiiy makon yaratdilar. Natijada qoraqalpoq adabiyoti Sharq adabiy merosini boyitgan, o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan mustaqil adabiy maktab sifatida shakllandi.

Shunday qilib, qoraqalpoq adabiyoti va Sharq adabiyoti uygʻunligi nafaqat tarixiy yaqinlik, balki umumiy turkiy madaniyat, maʼnaviy qadriyatlar va badiiy tafakkur uygʻunligining yorqin ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdax. **Sheʼrlar va dostonlar.** – Nukus: Bilim, 1996.
2. Ajiniyoz Qosiboy oʻgʻli. **Tanlangan asarlar.** – Nukus: Karakalpakstan baspasi, 2001.
3. Yusupov, I. **Tanlangan asarlar.** – Nukus: Bilim, 2005.
4. Karimov, B. **Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti.** – Toshkent: Universitet, 2010.
5. Qayipbergenov, T. **Qoraqalpoq adabiy jarayoni va anʼanalari.** – Nukus, 2012.
6. Qurbanov, B. **Turkiy xalqlar adabiyoti: taraqqiyot bosqichlari.** – Toshkent: Fan, 2008.
7. Madiyarov, S. **Oʻrta Osiyo tasavvuf anʼanalari va adabiy taʼsirlar.** – Toshkent: Maʼnaviyat, 2011.
8. Bartold, V.V. **Turkiston tarixi.** – Toshkent: Fan, 1997.
9. Sodiqov, A. **Oʻzbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari tarixi.** – Toshkent: Universitet, 2009.
10. Бурибаев, А., Абдуллаев, З. **История литературы народов Средней Азии.** – Москва: Восточная литература, 1998.
11. Mamatov, Sh. **Turkiy xalqlarning ogʻzaki ijodi.** – Toshkent: Tafakkur, 2013.